



## ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Yusupbayeva Umida Babamurat qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Ellikqal'a fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuvning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning adabiyot ta'limi samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot ta'limi, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, innovatsion ta'lim, kompetensiya, kitobxonlik madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования современных педагогических технологий на уроках литературы. Подчеркивается важность интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и компетентностного подхода в развитии у учащихся самостоятельного мышления, творческой деятельности и культуры чтения. Также обосновывается роль инновационных подходов в повышении эффективности литературного образования.

**Ключевые слова:** литературное образование, педагогические технологии, интерактивные методы, инновационное образование, компетентность, культура чтения, информационно-коммуникационные технологии, эффективность образования.

**Annotation.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of using modern pedagogical technologies in literature lessons. The importance of interactive methods, information and communication technologies, and a competency-based approach in developing students' independent thinking, creative activity, and reading culture is highlighted. The role of innovative approaches in increasing the effectiveness of literature education is also substantiated.

**Key words:** literature education, pedagogical technology, interactive methods, innovative education, competency, reading culture, information and communication technologies, educational effectiveness.

### KIRISH

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagogik jarayonni zamonaviy talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda ta'lim sohasiga oid me'yoriy hujjatlarda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari va



amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan<sup>1</sup>. Bu vazifalarni amalga oshirishda adabiyot fanining oʻrni beqiyosdir.

Adabiyot darslari nafaqat badiiy asarlarni oʻrganishga, balki yosh avlodning maʼnaviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli adabiyot taʼlimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagogik texnologiya oʻquv jarayonini oldindan loyihalash va kutilgan natijaga erishishni kafolatlaydigan pedagogik faoliyat tizimi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar taʼlim oluvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida qoʻllaniladigan interfaol metodlar oʻquvchilarning darsdagi faolligini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash koʻnikmalarini ham rivojlantiradi. Jumladan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB”, “INSERT”, “Sinkveyn”, “Venn diagrammasi”, “Munozara” kabi metodlar oʻquvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga undaydi<sup>2</sup>.

Masalan, badiiy asar qahramonlarini tahlil qilishda “Venn diagrammasi” usulidan foydalanish qahramonlar xarakteridagi oʻxshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi. “Klaster” metodi esa asarning gʻoyaviy mazmunini tizimli ravishda oʻrganishga yordam beradi. “Munozara” metodidan foydalanish orqali oʻquvchilar oʻz fikrlarini erkin bayon etish va himoya qilish koʻnikmalarini egallaydilar.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taʼlim jarayoniga kirib kelishi adabiyot darslarining samaradorligini yanada oshirmoqda. Elektron taqdimotlar, videomateriallar, audiokitoblar va internet manbalaridan foydalanish oʻquvchilarning mavzuga qiziqishini kuchaytiradi hamda bilimlarni mustahkam oʻzlashtirishlariga yordam beradi. “Debat” (Bahs-munozara) oʻtkazish orqali asar ichiga yanada kirib boriladi.

Mavzu: *“Jannat xolada ayb bormi?”*

Muammo: Ona oʻgʻlining xoinligini bilib turib, uni yashirishi va unga ovqat tashishi toʻgʻrimi?

Guruhlar:

1. Yoqlovchilar: “Ona baribir ona, u farzandini har qanday holatda boʻlmasin asrashi kerak”.

2. Qoralovchilar: “Xoyinni yashirish — vatanga qarshi jinoyatga sherik boʻlishdir”.

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

<sup>2</sup> Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Taʼlim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2016. – B. 45–52.



Metoddan kutilgan natija: O‘quvchilar hayotdagi murakkab ma’naviy tanlovlar haqida mushohada yuritadilar.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o‘quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy faol fuqarolik, madaniy hamda shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Natijada o‘quvchi badiiy asarni o‘qish, tahlil qilish va baholash jarayonida mustaqil fikrlashga o‘rganadi<sup>3</sup>.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchidan ham yuqori kasbiy mahoratni talab qiladi. O‘qituvchi darsning maqsadidan kelib chiqib metodlarni to‘g‘ri tanlay olishi va ularni samarali qo‘llashi lozim. Aks holda kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Shu bois umumta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash ta’lim samaradorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2016.
4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
5. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
7. Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fani o‘quv dasturi. – Toshkent, 2023.

<sup>3</sup> Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – B. 33–41.